

Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

Zarafshon

2026-yil 5-sentabr, shanba,
78 (24.258)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz info@zarnews.uz

O‘zbek xalq maqoli

Elga qo‘shilsang, er bo‘lasan



Markaziy Osiyo iqlim o‘zgarishlari yoshlar nigohida

Samarqand shahrida “Iqlim va suv resurslarini boshqarishda mintaqa yoshlarining o‘rni” mavzusida BMT Iqlim bo‘yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy yoshlar konferensiyasi (RCOY Central Asia 2026) o‘z ishini boshladi.

Yoshlar ishlari agentligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, “Zamin” xalqaro jamoat fondi hamda UNICEF hamkorligida tashkil etilgan xalqaro anjumanda O‘zbekiston, Afg‘oniston, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Mo‘g‘uliston, Tojikiston, Turkmaniston va Turkiyadan 100 nafardan ortiq yoshlar, ekspertlar, xalqaro tashkilotlar va davlat idoralari vakillari ishtirok etmoqda.

Konferensiyaning birinchi kuni ishtirokchilarning salohiyatini oshirish, iqlim o‘zgarishi va suv resurslarini boshqarish sohasidagi zamonaviy tendensiyalar bilan tanishish hamda mintaqaviy yoshlar bayonotini tayyorlashga bag‘ishlandi.

Tadbir doirasida Markaziy Osiyodagi iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq so‘nggi ilmiy ma’lumotlar, global iqlim siyosati, mintaqaviy suv boshqaruvi va suv xavfsizligi masalalari muhokama qilindi.

— Ushbu konferensiya Markaziy Osiyoda uchinchi marta tashkil etilmoqda, — deydi Yoshlar ishlari agentligi xalqaro hamkorlik va reytinglar bo‘limi bosh mutaxassisi Yahyo Mustafoqulov. — Anjuman Markaziy Osiyo yoshlarining iqlim o‘zgarishi va suv xavfsizligi kabi umummintaqaviy muammolarni hal etish borasidagi ovozini birlashtirish, ularning taklif va tashabbuslarini xalqaro iqlim muloqotlariga olib chiqish uchun muhim muloqot maydoni bo‘lib xizmat qiladi.

Tadbir davomida yoshlar tomonidan bildirilgan taklif va tashabbuslar umumlashtirilib, shu yilning noyabr oyida BMT tomonidan Turkiyaning Antaliya shahrida o‘tkaziladigan navbatdagi xalqaro iqlim konferensiyasida taqdim etiladi. Eng ilg‘or va amaliy ahamiyatga ega tashabbuslar esa xalqaro tajriba sifatida amaliyotga tatbiq etilishi ko‘zda tutilgan.

F. RO‘ZIBOYEV.



Yosh parlament a’zolari anjumani

Samarqand shahrida Parlamentlararo ittifoq Yosh parlament a’zolarining XII global konferensiyasi o‘z ishini boshladi.

“Murakkab davrda inson huquqlari, adolat va inson qadr-qimmatini tiklash yo‘lida” mavzusida o‘tkazilayotgan nufuzli xalqaro anjumanda dunyoning 58 mamlakatidan yosh parlament a’zolari, 11 ta xalqaro tashkilot vakillaridan iborat 250 ga yaqin ishtirokchi qatnashmoqda.





O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigini Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva o‘qib eshittirdi.

Senat Raisi konferensiyada so‘zlagan nutqida bugungi murakkab geosiyosiy sharoitda parlament diplomatiyasi, o‘zaro muloqot va yoshlarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini kengaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratilayotganini ta’kidladi. Parlamentlar yoshlarni siyosatning obyekti sifatida emas, balki qarorlarning teng huquqli hammuallifi sifatida ko‘rishi zarurligi qayd etildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov mamlakatimizda yoshlar masalasiga qaratilayotgan e’tiborning ahamiyati haqida fikr yuritdi. Oliy Majlis palatalari huzuridagi yoshlar parlamentlari yoshlar va parlament o‘rtasida samarali ko‘prik vazifasini o‘tamoqda. Yoshlar nafaqat qonunlarni o‘rganadi, balki o‘z tashabbuslarini qonun ijodkorligi jarayoniga olib kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Parlamentlararo ittifoq Prezidenti Tulia Ekson xonim bugungi kunda yoshlarning ovozi xalqaro miqyosda muhim qarorlarni qabul qilish jarayonlarida tobora katta ahamiyat kasb etayotganini ta’kidladi. Ayniqsa, turli mamlakatlardan kelgan yosh parlament a’zolarining o‘zaro muloqoti, tajriba almashinuvi va hamkorligi bugungi global muammolarni hal qilishda yangi yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qilishini qayd etdi.

Global konferensiya doirasida inson huquqlari va yoshlarning siyosiy ishtiroki, ijtimoiy adolat, raqamli xavfsizlik, ta’lim va munosib mehnat, yosh ayollarning siyosiy faolligi, shuningdek, parlamentlarning global muammolarni hal etishdagi roli kabi qator muhim masalalar muhokama qilinmoqda.



Samarqandda Kadastr agentligi direktori Sadriddin Turdiyev hamda viloyat boshqarmasi mutasaddilari ishtirokida sayyor qabul o‘tkazildi. Qabul davomida 200 nafar fuqarolarning 150 ga yaqin murojaati tinglandi.

Munosabat

Mustaqillik xalqimizning asriy orzu-intilishlari, erkin va farovon hayot haqidagi ezgu niyatlarining ro‘yobi sifatida milliy davlatchiligimizning mustahkam poydevoriga aylandi. Bugun 35 yillik tarixiga nazar tashlar ekanmiz, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, yangilanishlar va eng muhimi, inson hayotidagi ijobiy o‘zgarishlar istiqlolning haqiqiy qadrini namoyon etayotganini ko‘ramiz.

YETTI MILLIY DASTUR — YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHI

Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi ham ana shu g‘oya — mustaqillikni inson qadri, xalq farovonligi va milliy yuksalish bilan uyg‘unlashtirish g‘oyasi bilan yo‘g‘rildi. Davlat rahbari mamlakatimiz taraqqiyotning mutlaqo yangi davriga qadam qo‘yayotganini ta’kidlab, kelgusi o‘n yillikni milliy yuksalish davri sifatida belgiladi.

E’tiborlisi, yangi bosqichning asosiy maqsadi sifatida inson qadrini yanada yuksaltirish belgilandi. Bu esa mustaqillikning eng muhim mezoni — insonning huquq va erkinliklari, munosib hayoti, qonuniy manfaatlari va kelajakka bo‘lgan ishonchini ta’minlash ekanini anglatadi.

Prezident nutqida kelgusi yillarda inson qadrini yanada yuksaltirishga qaratilgan 7 ta milliy dasturni amalga oshirish vazifasi belgilandi. Ushbu dasturlar ta’lim, tibbiyot, iqtisodiyot, ekologiya, adolat, mahalla va tashqi siyosat kabi muhim yo‘nalishlarni qamrab oladi.

Birinchi milliy dastur — bilim va malakani taraqqiyotning asosiy kapitaliga aylantirish.

Bu vazifa, avvalo, yosh avlodga sifatli ta’lim berish, ularni zamonaviy kasblarga o‘qitish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilgan. Olti yoshli bolalarni tayyorlov guruhlariga to‘liq qamrab olish, maktablarni xalqaro baholash dasturlariga jalb etish, texnikumlarda xalqaro standartlarni joriy qilish va yoshlarni yuqori daromadli kasblarga tayyorlash kabi vazifalar belgilandi.

Ikkinchi milliy dastur — xalqimizning sog‘lom va uzoq umr ko‘rishini ta’minlash.

Inson qadri, eng avvalo, uning sog‘lom va munosib hayot kechirishi bilan bog‘liq. Shu bois tibbiyot tizimini takomillashtirish, profilaktika va sifatli tibbiy xizmatni kuchaytirish aholi farovonligining muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Uchinchi milliy dastur — iqtisodiyotni yuqori texnologiya va mehnat unumdorligi modeliga o‘tkazish.

Yangi iqtisodiy taraqqiyot modeli yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar, innovatsiyalar, zamonaviy texnologiyalar va inson kapitaliga tayanadi. Bu esa yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va yoshlar uchun zamonaviy kasb hamda imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchi milliy dastur — suv va tabiatga munosabatni tubdan o‘zgartirish.

Suv resurslaridan oqilona foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, ekologik barqarorlikni ta’minlash va “Yashil makon” umummilliy harakatini yangi bosqichga olib chiqish kelajak avlodlar oldidagi muhim mas’uliyatdir. Prezident nutqida yaqin yillarda tuman va shahar markazlarida yashil hududlar ulushini 30 foizga yetkazish maqsadi ham belgilandi.

Beshinchi milliy dastur — sud mustaqilligini kuchaytirish va qonun ustuvorligini umumiy qadriyatga aylantirish.

Bu yo‘nalish inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega.

(Davomi 3-sahifada) »»

Elning e’zozida bo‘lish uchun lavozim shart emas

Ayrimlar yoshligida yaxshi o‘qimagan odam keyin cho‘pon bo‘ladi, deb o‘ylaydi. Aslida unday emas. Shaxsan men maktabda a’lo baholarga o‘qiganman. Qiziqish tufayli oliygohda o‘qishdan ko‘ra cho‘ponlikni tanlaganman. Lekin shu kasbni tanlaganimdan afsuslanganim yo‘q, bil’aks, cho‘ponlik ortidan ko‘p hurmat-e’tibor ko‘rdim, elda e’zoz topdim.

Dastlab mustaqilligimiz qanday qiyinchilik bilan boshlangan bo‘lsa, bizning sohamiz ham shunday qiyinchiliklarga uchragan. U paytlarda chorvachilikka hozirgidek e’tibor yo‘q edi. Har kim bilganicha chorva boqardi, veterinariya xizmati ham talab darajasida emasdi. Shunday bo‘lsa-da, olti aka-uka hammamiz cho‘ponlikni tanlaganmiz.

Lekin hozir yoshlar orasida cho‘ponlikka qiziqish kamayib ketdi. Biz bir burda nonni belga bog‘lab, dalaga ketaverardik, ammo yoshlarda chorvachilikdagi juda yaxshi daromadga qiziqish bor. Lekin cho‘ponlikda ham ilm kerak, otarning holati, chorva mollaridagi o‘zgarishlarga e’tibor berish lozim.

Bahorda ikki oy yaxshi yog‘ingarchilik bo‘lsa, yilga tatiydi. Lekin keyingi yillarda dunyoda suv tanqisligi, qurg‘oqchilik kuchayib boryapti. Shunday paytlarda cho‘pon boshqa joydagi chorvaga mos keladigan o‘tli maydonni aniqlay olishi lozim. Aks holda, qo‘ylar moslashmay qolishi mumkin.

Shusiz ham chorvachilikda muammolar talaygina. Yildan-yilga qurg‘oqchilik tufayli chorvani boqish qiyinchilik tug‘dirmoqda. Yana chorva zotini yaxshilash lozim. Xorijdan keltiriladigan naslga tayanib qolmasdan, o‘zimizning mahalliy zotlarni rivojlantirishga e’tibor qaratishimiz kerak.

Hozir jamoamizda 12,5 ming bosh qo‘y bor. Har yili 6 ming boshdan ortiq qo‘zini o‘stirishga qoldiramiz, shundan yiliga otar chiqaramiz. Ichki va tashqi bozor talabidan kelib chiqib, go‘sht yetishtirishni rivojlantirmoqchimiz.

Chorvachilikdagi natijalarimiz,



mehnatimiz munosib e’tirof etib kelinmoqda. Bu yil eng ulug‘, eng aziz bayramimiz arafasida davlatimiz rahbarining farmoni bilan “Shuhrat” medali bilan taqdirlanganim ham sohaga berilayotgan e’tiborning namunasidir. Bu mukofot barcha cho‘ponlarning mehnatiga berilgan munosib baho va sohaga e’tibor qaratilayotganining yorqin isboti bo‘ldi.

Sayfiddin MAMATOV
Nurobod tumanidagi Sahoba xo‘jaligi bosh cho‘poni, “Shuhrat” medali sohibi.

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz
@zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz info@zarnews.uz

Jinoiy javobgarlikka tortilgan, sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan fuqarolar muddatli harbiy xizmatga chaqirilmaydi

Zarafshon

ARMIYAGA TANLASH JARAYONLARI BOSHLANDI

Shu yilning 10-avgustidan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o‘tash uchun fuqarolarni tanlab olish jarayoni boshlandi va bu jarayon 2027-yilning 10-fevraliga qadar davom etadi.



Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-iyuldagi qarori bilan tasdiqlangan “Chaqiriluvchilarni tanlab olish tartibi to‘g‘risida”gi nizom hamda viloyat hokimining 2026-yil 14-iyuldagi qarorida belgilangan vazifalar asosida viloyatda ham 2027-yilgi navbatdagi chaqiruv mavsumiga tayyorgarlik doirasida chaqiriluvchilarning harbiy xizmatga yaroqliligi, jismoniy tayyorgarligi va boshqa muhim ko‘rsatkichlari belgilangan tartibda o‘rganilmoqda.

Ilgari muddatli harbiy xizmatga chaqiriluvchilar ro‘yxatini shakllantirish faqat mudofaa ishlari bo‘limlarining zimmasida edi. O‘tgan yilgi chaqiruv mavsumidan boshlab ushbu mas’uliyatli vazifa mahallalardagi yoshlar yetakchilariga yuklatildi. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-iyuldagi “Chaqiriluvchilarni tanlab olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qaroriga ko‘ra, yoshlar yetakchilari o‘z hududidagi yoshlar soniga qarab, uch nafardan besh nafargacha chaqiruv yoshidagi yigitlarni muddatli harbiy xizmatga jalb qilishi belgilangan.

Shu asosda viloyatning barcha tuman va shahar mudofaa ishlari bo‘limlarida muddatli harbiy xizmatga yuboriladigan chaqiriluvchilarni tanlab olish hamda ularning jismoniy tayyorgarligini aniqlash bo‘yicha sinovlar boshlangan. Jarayonlarni tanlov kengashi a’zolari, keng jamoatchilik vakillari hamda chaqiriluvchilarning ota-onalari bevosita kuzatib borishi mumkin.

Nizomga muvofiq, tanlov jarayonida chaqiriluvchilarni harbiy-texnika mutaxassisliklari bo‘yicha tayyorgarlikka jalb etish va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o‘tash uchun saralash tartibi belgilangan. Chaqiriluvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi maxsus normativlarni bajarish orqali aniqlanadi. Bunda turnikda tortilish, 100 va 3000 metr masofaga yugurish sinovlari topshiriladi. Ushbu normativlar chaqiriluvchining umumiy jismoniy tayyorgarligi va harbiy xizmatga moslashish imkoniyatlarini baholashda muhim mezonlar hisoblanadi.

“Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasiga ko‘ra, tinchlik davrida oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida muddatli harbiy xizmatga, shuningdek, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga 18 yoshdan 27 yoshgacha bo‘lgan, salomatligiga ko‘ra Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o‘tashga yaroqli erkak fuqarolar chaqiriladi.

Chaqiriluvchilar o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ma’lumotga ega bo‘lishi mumkin. Agar chaqiriluvchi ta’lim muassasalarida kunduzgi ta’lim shaklida tahsil olayotgan bo‘lsa, chaqiruv muddati u o‘qishni tamomlaguniga qadar kechiktiriladi. Bundan tashqari, chaqiruv muddatini kechiktirish oilaviy sharoit, salomatlik holati yoki o‘qishni davom ettirish kabi asoslarga ko‘ra tegishli hududiy komissiya qarori bilan amalga oshirilishi mumkin. Chaqiruv muddatini qonunchilikda nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha kechiktirish uchun fuqarodan hech qanday to‘lov talab qilinmaydi.

Qonunchilikda harbiy xizmatga chaqirilmaydigan shaxslar toifasi ham belgilangan. Jumladan, jinoiy javobgarlikka tortilgan, sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan fuqarolar muddatli harbiy xizmatga chaqirilmaydi.

Mamlakatimiz Qurolli Kuchlarida amalga oshirilgan keyingi islohotlar natijasida ayni paytda muddatli harbiy xizmatga jalb etilganlar xizmat davrida kasb-hunar va xorijiy tillarni o‘rganishi uchun imkoniyatlar kengaytirilgan. Ya’ni, askar muddatli harbiy xizmatni o‘tash bilan birga ma’lum bir kasb-hunarga ega bo‘lishi va xorijiy tilni o‘rganishi mumkin. Bu esa u xizmatdan zaxiraga bo‘shatilgach, ishga joylashishi yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi uchun keng imkoniyat yaratadi.

Bundan tashqari, muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan shaxslarga xizmat davridayoq oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun test sinovlarida qatnashish imkoniyati berilgan.

Burhon QUVVATOV,
viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi boshlig‘i.

Tibbiyot

QO‘SHRABOTLIK YOSHLAR, qayting!



“Salom, men virtual yordamchi Muxlisaman. Men Sizga tezda shifokorni ko‘rish, ro‘yxatdan o‘tish, kassirga tashrif buyurishga yordam beraman”.

DMED tizimi ishga tushirilgach, yurtimizning qariyb barcha birlamchi tibbiyot muassasalariga kirishda mana shunday, Muxlisa ismli, sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan qiz (qurilma) murojaatchilarni elektron ro‘yxatga olishdan tortib, muassasadagi tartib-qoidalargacha tushuntirmoqda. Jumladan,viloyatimizning chekka, Qo‘shrabot tumanidagi barcha tibbiy muassasalarda ham sizni Muxlisa kutib oladi. Bu juda yaxshi tajriba, ammo shifokorning o‘rni bo‘lak-da, nima dedingiz? Tibbiyotdagi yangiliklar ushbu tumanda qanchalik aks-sado bermoqda, bu sohada hududda nimalar o‘zgardi-yu, nimalar o‘zgarmadi, maqolamiz shu haqda.

TUMANGA MSKT KELDI

- Bundan o‘n yillar avval, endi ish boshlagan kezlarim edi, - deya xotirlaydi tuman markaziy shifoxonasi bosh shifokori o‘rinbosari Sherali Buvrayev. – Kechqurun bemorlar kelib qolsa, navbatchilikda UTT, rentgen, travmatolog mutaxassisi bo‘lmasdi. Shoshilinch tarzda kelgan bemorga yordam ko‘rsatish shunchalik mushkul bir vaziyatga aylanib ketardi. Faqat klinik belgilarga qarab tashxis qo‘yib, davolashga kirishardik. Hozir bu kabi holatlarni birov eshitsa, bo‘lishi mumkin emas, deb hayron qoladi. Bugun bu muammolar nafaqat barham topdi, balki sharoit ham yaxshilandi.

Ayni paytda tumandagi 144 ming aholiga 22 ta oilaviy poliklinika hamda bitta markaziy shifoxona xizmat ko‘rsatadi. Markaziy shifoxona 7 bo‘limdan iborat bo‘lib, yaqinda reabilitatsiya bo‘limi tashkil etilish arafasida. Aholiga 140 nafar shifokor, 863 nafar o‘rta tibbiyot xodimi xizmat ko‘rsatadi. 20 nafar shifokor boshqa tuman yoki viloyatdan kelib faoliyat ko‘rsatmoqda. Bizni biroz qiynaydigan masala birlamchi tibbiyot tizimida 80 foiz shifokorlarning nafaqa yoshida ekanligi. Bugun tibbiyot raqamlashtirilyapti, ularni esa bu tizimga o‘rgatish juda qiyin kechayapti. To‘g‘ri, o‘tgan yildan boshlab birlamchi tibbiyotda faoliyat ko‘rsatayotgan shifokor, hamshiralarning oylik maoshi ilgarigidan 2-3 baravar oshdi. Endi bu muammoni hal etish imkoni ham paydo bo‘ldi. Tibbiyot institutlarida yuzlab qo‘shrabotlik talabalar tahsil oladi. Ularni o‘z hududiga qaytib ishlashi uchun zarur choralarni ham ko‘ryapmiz.

Keyingi yillarda shifoxonaga 30 ga yaqin yangi tibbiy apparatlar keltirildi, ular orasida EKG, UTT, laboratoriya jihozlari, raqamli uskunalar bor. Ilk bor MSKT (multispiral kompyuter tomografiyasi) apparati keltirildi. Shu paytgacha bemorlar ushbu keng qamrovli tashxisni amalga oshirish uchun Ishtixon tumani yoki viloyat markaziga borishga majbur bo‘lardi. Shu yilning o‘zida tumanda 68 ta laparoskopik jarrohlik amaliyoti o‘tkazildi.

BIR OYGA KELGAN SHIFOKOR BIR YILGA QOLIB KETDI

-2025-2026-yillarda “Ishonch-2030” dasturi doirasida bo‘limimizga 15 turdan ortiq zamonaviy uskunalar ajratildi. Uzoq yillar tuman tug‘ruq bo‘limi moddiy-texnik bazasi abgor ahvolda edi, - deydi tuman markaziy shifoxonasi tug‘ruq bo‘limi mudiri Dilshod Xoldorov. - Intensiv chaqaloqlar, reanimatsiya bo‘limlari tashkil etildi. Kadrlar masalasiga ham e’tibor qaratildi. Misol uchun, o‘zim ham Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi viloyat filialida faoliyat ko‘rsataman. O‘tgan yili bir oy muddatga tumandagi ona va bola salomatligini muhofaza qilish bilan bog‘liq ishlarni yaxshilash maqsadida shu yerga jo‘natishgandi. Ammo bir yarim yil vaqt o‘tdiki, hamon shu yerdaman.

To‘g‘ri, shifokorlar yetishmasligi bor, ammo tan olib aytish kerak, sharoit ilgarigidan ko‘ra bir necha baravarga yaxshilangan. Ushbu sharoitlar tufayli 2025-yil hamda 2026-yilning hozirgi davriga qadar tumanda onalar o‘limi kuzatilmadi. Ayollarda o‘z salomatligiga e’tibor kuchaydi.

BIRINCHI MARTA TORCH-INFEKSIYALARINI TUMANDA TEKSHIRYAPMIZ

- Bir kunda 500 nafar kishining 32 xil tahlillarini amalga oshiramiz, shu yildan boshlab tungi smenada ham vrachlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi, - deydi tuman markaziy shifoxonasi laboratoriya bo‘limi mudiri Gulshoda Saydinova. – Laboratoriyamiz bu yil butunlay yangi apparatlar bilan ta’minlandi. Birgina zamonaviy tahlil uskunasi orqali 22 xil analizlarni amalga oshirish mumkin. Muhimi, ushbu tahlillar to‘g‘ridan-to‘g‘ri DMED tizimiga kiritiladi va kerakli manzilga jo‘natiladi. IFA analizlari, serologik tahlillar amalga oshirilyapti, birinchi marta torch-infeksiyalarini tumanda tekshiryapmiz.

ZARUR SHTATLAR QISQARDI

- 10 kilometrgacha bo‘lgan radiusda joylashgan 12 ming 600 nafar aholiga xizmat ko‘rsatamiz, - deydi Zarkent oilaviy poliklinikasi bosh shifokori Xoldor Ibragimov. – To‘rtta brigada tashkil etilgan bo‘lib, har bir brigadada bir nafar shifokor, amaliyotchi va uch nafar hamshira bor. Ular ma’lum bir hududdagi 3 ming aholiga xizmat ko‘rsatadi. Aholimizning katta qismi konda ishlagani uchun asosan tayanch-harakat tizimi hamda nafas olish yo‘llaridagi xastalikdan aziyat chekadi.

Tizimdagi ba’zi o‘zgarishlar tufayli bugun poliklinikalardagi aksar tor mutaxassislar shtatlari qisqartirildi. Xususan, terapevt, xirurg kabi mutaxassislar lozim bo‘lsa, aholi tuman markaziga borishga majbur. Umuman, shifokor masalasida bizda ham muammolarimiz bor. Misol uchun, pediatrimiz pensiya yoshida, ancha keksayib qolgan. Lekin kelib ishlashini iltimos qilib o‘tiribmiz. Ginekolog mutaxassisimiz esa xususiy klinikada faoliyat ko‘rsatadi, uni ham qonun doirasida, kunning ma’lum bir vaqtida chaqirtirib ishlatishga majburmiz.

DMED tizimi ishga tushgani juda qulay, ammo aloqa har doim ham yaxshi ishlamagani tufayli ba’zida murojaatchilar kutib qoladi. Keyingi yillarda birlamchi tizimdagi yana bir muhim yangiliklardan biri tahlillar markazlashgan holda amalga oshirilishi bo‘ldi. To‘g‘ri, markaziy laboratoriyalar buning uchun yangi, zamonaviy uskunalar bilan jihozlandi, tahlillar aniqligi bir necha baravar o‘sdi. Bugun hayotimizdagi tezkorlik tibbiyotga, odamlar hayotiga ham bevosita ta’sir qilmoqda. Ya’ni, odamlar endi qon topshirib, uning javobini ikki soatda bilishni istaydi, biz esa bu imkoniyatni yaratib berolmaymiz, natijada ular pul sarflashga ham rozi bo‘lib, xususiy klinikalarga ketmoqda. Balki keyingi bosqichlarda shunday jihozlar oilaviy poliklinikalarning o‘zida ham tashkil etilar, degan umidlarimiz yo‘q emas.

Muhim yangiliklardan biri - patronaj hamshiralar faoliyati bilan bog‘liq. Ilgari patronaj hamshiralar uyma-uy yurgani bilan aniq bir yuklama bajarmasdi. Ayni paytda ular ma’lum bir savollar bilan, aniq topshiriqlar asosida xonadonlarda bo‘layapti va bu savollarga javob hisobot shaklida ulardan so‘ralyapti. Bu xonadonlardagi tibbiy madaniyatni o‘rganish va tahlil etishda juda muhim.

TAYYOR POLIKLINIKA YOPILDI

Ushbu poliklinika aslida tuman markaziga unchalik uzoq emas, chiqsa 10-15 kilometr uzoqlikda edi. Ammo Qo‘shrabotda tuman markazidan 90-100 kilometr uzoqlikdagi masofada joylashgan oilaviy poliklinikalar ham bor. Eng qizig‘i, bor, deb ham bo‘lmaydi. Chunki birlamchi tibbiyot sohasidagi ba’zi o‘zgarishlar tufayli shu yil ushbu poliklinika faoliyati to‘xtatildi. Sababi, nizomga ko‘ra, uch ming aholisi mavjud bo‘lgan hududdagina poliklinika to‘laqonli ish olib borishi mumkin. Tuman markazidan qariyb yuz kilometr uzoqlikda bo‘lgan Jonbuloqda 2400 aholi hamda Mirishkor mahallasida ikki mingdan ziyod aholi istiqomat qiladi. Uch ming emasda! Demak, mumkin emas. Vaholanki, bu hududga borib kelish uchun biz ko‘nikib qolgan tep-tekis asfalt yo‘lda emas, o‘nqir-cho‘nqir tog‘ yo‘llaridan o‘tishga to‘g‘ri keladi. Qish, yomg‘irli kunlarda aholining bu yerdan borishi lozim bo‘lgan eng yaqin poliklinika ham kamida 40 kilometrni tashkil etadi. “Bu yerdagi aholi juda qiynalyapti. Bu haqdagi takliflarimizni aytganmiz, inobatga olinadi, degan umiddamiz”, deydi qo‘shrabotlik tibbiyotchilar.

Ha, o‘zgarishlar bor, yangiliklar ko‘zga tashlanmoqda. Ammo ba’zi yangiliklarni butun mamlakat miqyosida tatbiq etish qanchalik to‘g‘ri? Qo‘shrabot kabi tog‘li, aholi tarqoq yashaydigan hududlar misolida bu masalaga alohida yondashuv, aynan shu hududlar bo‘yicha yechim taklif etish lozim, nazarimizda. Mutaxassislar ham shunday fikrda.

Gulruh MO‘MINOVA.

SamDU Urgut filiali SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTIGA QO‘SHILDI

Nimalar o‘zgaradi?



Oliy ta’lim tizimidagi islohotlar, mehnat bozorining zamon talablariga moslashuvi va hududlarda kadrlar tayyorlash sifatini oshirish O‘zbekistondagi yetakchi oliy o‘quv yurtlari tuzilmasida muhim o‘zgarishlarni talab etmoqda. Samarqand davlat universiteti hamda Samarqand davlat pedagogika institutida amalga oshirilayotgan transformatsiyalar buning yorqin isbotidir.

Urgut tumani viloyatdagi eng yirik va aholi zich joylashgan hududlardan biri hisoblanadi. Yoshlarning oliy ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish va mahalliy mehnat bozorini kadrlar bilan ta’minlash maqsadida 2021-yilda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Samarqand davlat universitetining Urgut filiali tashkil etildi.

Filial faoliyati davomida pedagogika, filologiya, aniq va tabiiy fanlar hamda biznesni boshqarish yo‘nalishlari bo‘yicha Urgut va qo‘shni hududlar yoshlarini qamrab oldi. Biroq vaqt o‘tishi bilan viloyatdagi oliy ta’lim tizimini yanada maqbullashtirish va tarqoqlikning oldini olish zarurati yuzaga keldi.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2026-yil 26-mayda qabul qilingan “Samarqand viloyatidagi oliy ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror viloyatdagi oliy ta’lim muassasalari tuzilmasini yanada tizimlashtirish va sohaviy ixtisoslashuvni chuqurlashtirishga qaratildi.

Ushbu qarorga muvofiq, SamDU Urgut filiali Samarqand davlat pedagogika institutiga qo‘shildi. Filialning mavjud bazasi, o‘quv binolari va moddiy-texnik imkoniyatlari asosida Samarqand davlat pedagogika institutining Urgut fakulteti faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bu pedagogik kadrlar tayyorlashni yagona markazga birlashtirish imkonini beradi.

Biznesni boshqarish va tabiiy fanlar fakultetining 2025–2026-o‘quv yilida tahsil olayotgan talabalari uchun maxsus tartib belgilandi. Ular o‘qishni tugatguniga qadar Samarqand davlat pedagogika institutining Urgut fakulteti binosida ta’lim olishni davom ettiradi. Ya’ni, ular SamDU talabasi hisoblansa-da, o‘qish joyi va kundalik qulayliklari saqlab qolinadi.

SamDU Urgut filialining pedagogika instituti tarkibiga qo‘shilishini viloyat oliy ta’lim tizimini takomillashtirish va talabalarga yuqori sifatli ta’lim berishga qaratilgan puxta o‘ylangan strategik qadam sifatida baholash mumkin.

Akbarxon ASROROV,
SamDPI Urgut fakulteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi.

YETTI MILLIY DASTUR – YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHI

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Adolat qaror topgan joydagina insonning davlatga ishonchi, jamiyatning barqarorligi va iqtisodiy taraqqiyot ta’minlanadi. Shuning uchun huquqiy tarbiyani maktabdan boshlash, fuqarolar va tadbirkorlarning qonuniy kafolatlarini kuchaytirish, kiberjinoyatchilik, odam savdosi, giyohvandlik, yashirin iqtisodiyot, uyushgan jinoyatchilik, xotin-qizlar va bolalar huquqlarini kamsitishga qarshi kurashni yangi bosqichga olib chiqish vazifalari belgilangan.

Bu vazifalar inson huquqlarini himoya qiluvchi milliy institutlar, jumladan, Ombudsman instituti zimmasiga ham katta mas’uliyat yuklaydi. Zero, fuqaroning huquqi buzilganida uni eshitish, muammosini o‘rganish, qonuniy manfaatlarini himoya qilish va davlat organlari faoliyatida inson huquqlari ustuvorligini ta’minlash huquqiy demokratik davlatning muhim belgisidir.

Oltinchi milliy dastur — mahallani jamiyat taraqqiyotining asosiy buyurtmachisiga aylantirish.

Mahalla inson va davlat o‘rtasidagi eng yaqin muloqot maydonidir. Shuning uchun hududlarni rivojlantirish, aholi muammolarini hal etish, ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirishda fuqarolarning fikri va ehtiyojlarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv “davlat — jamiyat — inson” munosabatlarini yanada takomillashtirib, aholining jamoatchilik boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Yettinchi milliy dastur — O‘zbekistonning tinchlik va do‘stlik diyori, bag‘rikeng o‘lka sifatidagi nufuzini yanada yuksaltirish.

Tinchlik, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik va yaxshi qo‘shnichilik mamlakatimiz barqaror taraqqiyotining muhim kafolatlaridir. O‘zbekistonning ochiq va pragmatik tashqi siyosati ham ana shu ezgu maqsadlarga xizmat qiladi.

Ushbu etti milliy dasturni birlashtirib turgan yagona g‘oya — inson qadrini yuksaltirish.

Ta’lim — insonning bilim va salohiyatini rivojlantiradi. Tibbiyot — uning sog‘lom hayotini ta’minlaydi. Iqtisodiy taraqqiyot — munosib mehnat va daromad imkoniyatlarini yaratadi. Ekologiya — kelajak avlodlar huquqini himoya qiladi. Adolat va qonun ustuvorligi — insonning huquq va erkinliklarini kafolatlaydi. Mahalla — inson muammosini joyida hal etishga xizmat qiladi. Tinchlik va bag‘rikenglik esa barqaror hayotning asosini yaratadi.

Shu ma’noda etti milliy dasturni faqat iqtisodiy yoki ijtimoiy vazifalar yig‘indisi sifatida emas, balki inson huquqlari va qadr-qimmatini ta’minlashning kompleks milliy dasturi sifatida ham baholash mumkin.

Yangi taraqqiyot bosqichida inson huquqlarini himoya qilish institutining vazifalari ham tobora kengayib bormoqda. Ombudsman uchun bu avvalo, fuqarolarning murojaatlarini samarali ko‘rib chiqish, huquqlari buzilishining oldini olish, davlat organlari bilan hamkorlikda muammolarni tizimli hal etish, qonunchilikni inson huquqlari nuqtayi nazaridan takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishni anglatadi.

Ayniqsa, qonun ustuvorligi va sud mustaqilligini kuchaytirishga qaratilgan beshinchi milliy dastur inson huquqlari himoyasi tizimini yanada takomillashtirish uchun muhim huquqiy zamin yaratadi.

Otabek TOSHNIYOZOV,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (OMBUDSMAN)ning Samarqand viloyatidagi mintaqaviy vakili.

Kattaqo‘rg‘onda SUV MUAMMO BO‘LMAYDI(MI?)

Ikki yildan buyon Kattaqo‘rg‘on shahrida aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash, oqova suv tizimini yaxshilash borasida yillar davomida to‘planib kelgan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar davom ettirilmoqda.

O‘tgan asrning 70-yillarida Kattaqo‘rg‘on shahrida ko‘p qavatli uy-joylarning qurilishi, sanoat korxonalari va aholi sonining ko‘payishi kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini yanada rivojlantirishni taqozo etgan edi. Shu yillarda, Kattaqo‘rg‘on tumanidagi Murtak qishlog‘ida soatiga 3 ming metr kub suv olish quvvatiga ega nasos stansiyasi hamda Boynazar qishlog‘ida suv tozalash inshooti barpo etilib, uzoq yillar shahar aholisiga



xizmat qilib keldi. Biroq vaqt o‘tishi bilan mavjud infratuzilma eskirib, aholining kommunal xizmatlar bilan bog‘liq muammolari ko‘paydi.

— Ko‘p qavatli uylardagi sharoitlar aholi talabiga to‘liq javob bermay qoldi, — **deydi Kattaqo‘rg‘on shahar hokimi o‘rinbosari Jamshid Ahmedov.** — Ayrim hududlarda ichimlik suvining soatbay berilishi aholi uchun noqulayliklar tug‘dirdi. Oqova suv tizimidagi ahvol esa yanada murakkablashdi. So‘nggi yillarga kelib, Boynazar suv oqova inshootining atigi 30 foiz qismigina ishga yaroqli edi. Shahardan 8 kilometr uzoqlikda joylashgan inshootga olib boruvchi oqova tarmoqlari o‘z xizmat muddatini allaqachon o‘tab bo‘lganligi tufayli tizim modernizatsiyaga muhtoj bo‘lib qoldi.

Bu holat nafaqat kommunal muammo, balki aholi salomatligi va atrof-muhit uchun ham jiddiy xavf tug‘dirardi. Boynazar suv tozalash inshootiga yaqin mahalla va qishloqlarda yashovchi aholi badbo‘y hiddan aziyat chekar, ayrim hududlarda chivin va pashshalarning ko‘payishi bilan bog‘liq muammolar kuzatilardi.

Shahar chekkasida joylashgan “Murtak” suv olish inshootini rekonstruksiya qilish ishlari “Maxsus suv qurilish” va “Tana Energy” O‘zbekiston–Eron pudrat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilmoqda. Hozirga qadar nasos agregatlarini o‘rnatish, xlorlash uskunalarini montaj qilish hamda elektr kabellarini o‘rnatish ishlari to‘liq yakunlangan.

— Ayni paytda inshootimizda 80 foiz ishlar yakuniga yetkazildi, — **deydi uchastka boshlig‘i Ahmad Iskandariy.** — Bu yerda 610 millimetrli suv quvurlari yotqizilib, ularni “Ko‘rpa” suv inshootiga ulash ishlari olib borilmoqda. Ikkinchi suv olish inshootida ham asosiy ishlar bosqichma-bosqich yakunlanmoqda, nasos agregatlari o‘rnatilib, uskunalar montaj qilindi, elektr kabellari o‘rnatildi. Har biri 6 ming kub metr sig‘imga ega bo‘lgan ikkita suv rezervuarini qurish bo‘yicha ishlar boshlandi.

Bu tizimda dastlab “Murtak” suv olish inshootidan olinadigan 8 ming kub metr toza ichimlik suvi 8 kilometr masofada joylashgan “Ko‘rpa” suv inshootiga yuboriladi, u yerdan



esa yirik suv saqlash rezervuarlarida jamlanib, yuqori quvvatli nasos agregatlari yordamida shahar aholisiga yetkazib beriladi. Loyiha asosida har biri 65–80 metr chuqurlikdan suv olish quvvatiga ega bo‘lgan 11 ta artezian qudug‘i orqali soatiga 11 ming kub metr toza ichimlik suvi olishga erishiladi.

Shuningdek, Kattaqo‘rg‘on shahridagi "Yangi markaz", "G‘isht zavodi" va "Tug‘ruqxona" suv inshootlarini rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Hozirgacha mazkur obyektlar himoya devorlari bilan o‘ralgan, qo‘riqlash binolari va nasos stansiyalari qurilib, 5 ta suv havzasini ta’mirlash ishlari to‘liq yakunlangan.

Shuningdek, shahardan 9 kilometr uzoqda joylashgan “Boynazar” oqova suvlarni tozalash inshootini rekonstruksiya qilish ishlari ham davom ettirilmoqda.

— Mazkur oqova suv inshooti eski inshoot yonidan qurilmoqda, — **deydi “Samarqand suv ta’minoti” AJ Kattaqo‘rg‘on shahar filiali direktori Nodir Mamadiyev.** — Ayni vaqtda “Alkatas – Mesmer” Turkiya–O‘zbekiston qo‘shma korxonasi quruvchilari tomonidan ishlar olib borilmoqda.

Ko‘p bosqichli loyiha doirasida shaharning Navbahor, Chinobod, Amir Temur kabi 29 ta mahallasida aholi xonadonlariga ichimlik suvi va oqova suv tarmoqlarini yangidan qurish hamda mavjud tarmoqlarni rekonstruksiya qilish ishlari rejalashtirilgan. Bu ishlar “Shahrisabz Yashil Diyor” MChJ va “2-son MKK” MChJ quruvchilari tomonidan amalga oshiriladi. Eng muhimi, xonadonlargacha bo‘lgan tarmoqlarning yangilanishi aholiga ko‘rsatilayotgan kommunal xizmatlar sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Qurilish-montaj ishlarini 2027-yil 15-dekabrga qadar yakunlab, foydalanishga topshirish ko‘zda tutilgan.

Ingichka shaharchasida ichimlik suvi ta’minoti tizimini rekonstruksiya qilish ishlari loyihaning bir qismi hisoblanadi. O‘n mingga yaqin aholi yashovchi beshta mahalla joylashgan shaharchada 10,3 kilometr magistral va ichki ichimlik suvi tarmoqlari hamda suv inshootlari barpo etilmoqda. 2 ta 500 kub metrli rezervuarda ichki pardozlash ishlari olib borilmoqda. “Sepki” suv inshootida esa artezian qudug‘i, 2 ta 200 kub metrli rezervuardagi ishlar yakunlangan bo‘lib, ayni vaqtda tashqi izolyatsiya ishlari bajarilmoqda.

— Shaharcha ahli “Sepki” suv inshootidan olinayotgan toza ichimlik suvi bilan ta’minlanadi, — **deydi shaharchaning Abdulla Qahhor nomli mahallasida yashovchi Tohir Qurbonov.** — Biroq ko‘p qavatli uylardagi xonadonlarni yetarlicha suv bilan ta’minlab bera olmay qolgandi. Hatto soatbay berishning ham imkoniyati yo‘q edi. Inshootni rekonstruksiya qilish orqali bu muammolarning oldi olinadigan bo‘ldi.

Loyihalar to‘liq amalga oshirilsa, yuz ming aholi yashovchi Kattaqo‘rg‘onda ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik darajasi 71,6 foizdan 93 foizga, oqova suv xizmatlari qamrovi 29,2 foizdan 52 foizga yetkaziladi. Bu esa aholi uchun sifatli ichimlik suvi ta’minotini yaxshilash, oqova suvlarni zamonaviy texnologiyalar asosida tozalash, shahar infratuzilmasini yangilash va aholiga ko‘rsatilayotgan kommunal xizmatlar sifatini oshirishda muhim qadam bo‘ladi.

Dilmurod TO‘XTAYEV.
Baxtiyor MUSTANOV olgan suratlar.

REKLAMA, E’LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada ikki marta - chorshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e‘lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA’VOLAR BO‘LSA...

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Nazarov Oblokulga (2017-yil 9-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand tumani O‘rtashiq mahallasi.

* * *

Past Darg‘om tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Hamidov Norbek Komil o‘g‘li notarial idorasida marhum Normurodov Furqat Gulmurodovichga (2026-yil 9-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Xamidov Norbek Komil o‘g‘li notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Past Darg‘om tumani Juma shaharchasi, Amir Temur ko‘chasi, 48-uy.

* * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo‘raqulovna notarial idorasida marhum Kuvandikov Abdirasil Yaxshibayevichga (2025-yil 26-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mirzayeva Barno Jo‘raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko‘chasi, 4-“A” uy.

* * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo‘raqulovna notarial idorasida marhum Axmedova Kubaro Abdurazakovnaga (2025-yil 28-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mirzayeva Barno Jo‘raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko‘chasi, 4-“A” uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Ismailov Isomidin Baturovichga (2008-yil 20-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Ismailova Muazamga (2003-yil 10-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Ismailov Sharifga (2014-yil 16-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasida marhum Radjabov Rizakulga (2016-yil 17-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 154-“A” uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qodirov Ulug‘bek Tolibovich notarial idorasida marhum Odilova Gulchixra Yusupovnaga (2019-yil 10-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qodirov Ulug‘bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko‘chasi.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qodirov Ulug‘bek Tolibovich notarial idorasida marhum Ubaydullayev Umarkul Norovichga (2018-yil 7-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qodirov Ulug‘bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko‘chasi.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Muxtarova Santalat Sayfiyevnaga (2021-yil 19-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O‘zbekiston ko‘chasi, 35-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qodirov Ulug‘bek Tolibovich notarial idorasida marhum Abdusatarov Amonkulga (1992-yil 22-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qodirov Ulug‘bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko‘chasi.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qodirov Ulug‘bek Tolibovich notarial idorasida marhum Gaybullayeva Ramziyaga (2024-yil 30-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qodirov Ulug‘bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko‘chasi.

* * *

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qurbonov Azizjon Ro‘ziyevich notarial idorasida marhum Murtazayev Baxridin Sayfidinovichga (2026-yil 18-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qurbonov Azizjon Ro‘ziyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Narpay tumani Oqtosh shahri, Imom Buxoriy ko‘chasi.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasida marhum Zakirov Sharofga (2009-yil 13-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Sug‘diyona maskani, 14/12-uy.

* * *

BEKOR QILINADI

Fuqaro Israilova Xurshedaga tegishli Samarqand shahri “Maqsud Shayxzoda” MFY, Rudakiy ko‘chasi, 172-“G” uy, 46-sonli kvartiraning oldi-sotdi shartnomasi (2025-yil 7-noyabrda tasdiqlangan, 202502255004188 raqam bilan reestrga kiritilgan) va kadastr hujjatlari yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

Samarqand shahridagi “ANOR PHARM PREMIUM” mas’uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 313162733) dumaloq muhri va burchak tamg‘asi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

Samarqand shahridagi “BUBLSOFT” mas’uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 312748074) dumaloq muhri va burchak tamg‘asi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

Maktab maslahatchilari umumta'lim maktablarida kamida 7 tagacha to'garak faoliyatini yo'lga qo'yishi kerak

Zarafshon



Zamonaviy maktab binosi — o'quvchilarga munosib sovg'a

Yangi o'quv yilida Urgut tumanidagi 7-umumta'lim maktabining 300 o'rinli qo'shimcha o'quv binosi foydalanishga topshirildi.

Maktab 2005-yilda 720 o'ringa mo'ljallab qurilgan, 2015-yilda 520 o'rinli qo'shimcha bino barpo etilgan edi. Biroq yillar davomida o'quvchilar soni ortib, mavjud o'quv binolari 1600 nafarga yaqin o'quvchiga torlik qilib qoldi.

2026-yil may oyida maktab hududida 300 o'rinli bino qurilishi boshlanib, uch oy muddatda foydalanishga topshirildi. «Registon Nur Lider» qurilish korxonasi tomonidan 4 milliard 331 million so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarildi.

— Yangi binoning foydalanishga topshirilishi o'quvchilar uchun qulay muhitni ta'minlamoqda, — deydi ta'lim muassasasi direktori Faxriddin Zayniyev. — 14 ta to'garakka 250 nafardan ziyod o'quvchi jalb qilingan. Bu yil 11 nafar bitiruvchimiz oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilindi.

Dilmurod TO'XTAYEV.



YANGI LAVOZIM – maktab maslahatchisi

Vazifalari nimalardan iborat?



Yangi o'quv yilidan boshlab umumta'lim maktablarida maktab maslahatchisi lavozimi joriy etildi. Bu vazifaga bir necha oydan beri kirishib, ancha-muncha ishlarni bajarganlar va endi ish boshlaganlar ham bor. Sababi, nomzodlar bosqichma-bosqich tanlab olindi. Asosiy vazifasi maktablarda o'quvchilar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va ularning salohiyatini yuzaga chiqarish bo'lgan mazkur yangi tizim uchun nomzodlar tanlov.uzedu.uz platformasi orqali shaffof va ochiq tarzda tanlab olindi. Besh mingdan ziyod nomzodlardan 947 nafari ijobiy natija ko'rsatdi va tegishli tavsiyanomalarni qo'lga kiritib, o'z faoliyatini yo'lga qo'ydi.

— Viloyatimizda ta'lim sifatini oshirish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va ularni zamonaviy kasb-hunarlarga yo'naltirishda «Kelajak markazlari» ham muhim ko'prik vazifasini bajarmoqda, — deydi viloyat "Kelajak markazi" direktori Zebiniso Shodiyeva. — Maktablarda faoliyat boshlagan maktab maslahatchilari bevosita markazlar bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'ymoqda. Bugungi kunda maktablardagi iste'dodli va tashabbuskor o'quvchilarni aniqlash, ularning loyihalarini qo'llab-quvvatlash hamda ularni «Kelajak markazlari»dagi to'garaklarga yo'naltirish borasida tizimli ishlar boshlab yuborildi. Bu esa yoshlarimizning nafaqat maktab doirasida, balki viloyat miqyosida ham zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallashlari uchun keng yo'l ochib beradi.

Bugungi kunda maktab maslahatchilari o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning tashabbuslarini ro'yobga chiqarish bo'yicha ishlarni yo'lga qo'ymoqda.

Maktab maslahatchilari umumta'lim maktablarida kamida 7 tagacha to'garak faoliyatini yo'lga qo'yishi kerak. Bu to'garaklar bepul emas, o'rtacha 61 ming so'mlik to'lovi mavjud. U maktabiga jalb qilmoqchi bo'lgan to'garak rahbarlari bilan shartnomalar tuzadi, ota-onalarga bu to'garaklar qaysi yo'nalishlarda bo'lishi yuzasidan tushuncha beradi, ularning fikrini o'rganadi. To'garak rahbarlari esa bevosita tushgan to'lovlardan oylik maosh oladi va o'z faoliyatini yo'lga qo'yadi. Qanchalik samarali va turli yo'nalishda to'garaklar tashkil etganiga qarab, maktab maslahatchilari qo'shimcha rag'batlantirib boriladi. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida bildirilishicha, maslahatchi maoshi maktab direktori o'rinbosari maoshiga tenglashtiriladi. Shuningdek, menejerlik sertifikatiga ega bo'lgan maslahatchilarga 30 foiz ustama beriladi.


Maktablarda erp.portfolio platformasi yo'lga qo'yilib, o'quvchilar portfoliysi yuritiladi va 2028–2029-o'quv yilidan boshlab shahodatnomalarda aks ettiriladi.

— Ish faoliyatimni shu yilning mart oyida boshlagandim, — deydi Urgut tumanidagi 7-umumta'lim maktabi maslahatchisi Jamshid Shodiyev. — Ishimni boshlashimizdan avval bizga seminarlar orqali faoliyatimiz atroflicha tushuntirildi. Buxoroda o'tgan birinchi maslahatchilar forumida ham qator bilimlarga ega bo'ldik. Shundan so'ng ishimni birinchi navbatda ota-onalar bilan suhbatdan boshladim. Shuningdek, mahallamizda ma'lum bir yo'nalishlarda bilim va tajribasi bor, ammo ishsiz fuqarolar ro'yxatini tuzdim. Shu tariqa o'rganishlarim natijasida o'quvchilarga turli fan va kasb-hunar o'rganishga ixtisoslashgan 14 ta to'garak ochishga muvaffaq bo'ldik.

Gulruh MO'MINOVA.

Kitobxonlik

Har tirik mavjudot, o'g'lim Qoragul…



Chingiz Aytmatov – asarlari o'qib bo'lingach faqat kitobi yopiladigan, suhbatlari esa qalblarda ham davom etadigan adib. Mutolaa qilayotganingizni unutib qo'yasiz. Qahramonning o'zi qulog'ingizga pichirlayotgandek bo'ladi. Ularning har birining ovozi bor va u ovozlarning birini ikkinchisiniki bilan adashtirib qo'ymaysiz, har biri o'ziga xos. Nigohlarini sezib turasiz. So'nggi sahifa kelganda bo'g'zingizda nimadir qotganini his qilasiz. Soatlab mushohada qilasiz, jim qolasiz, vaqt o'tgan sari esa mohiyatini anglab yetaverasiz.

"Eski aravani keksa bir kishi haydab borardi. Saman yo'rg'a – Gulsari ham juda qari edi…". "Alvido, Gulsari!" asari ushbu jumlalar bilan boshlanadi. Bir qarashda oddiygina uch narsa tasvirlanadi: eski arava, keksa kishi va qari ot. Ehtimol, birgina shu jumla orqali yozuvchi inson ham, hayvon ham, buyum ham vaqt qarshisida birdek ekanligiga ishora qilayotgandir. Asarni o'qish davomida esa xotiralarning eskirmasligiga amin bo'lasiz. Tanaboy Bakasov jon berayotgan qari oti yonida hayotini ko'z oldidan o'tkazadi. Bu xotiralar esa kitobxon ko'z o'ngida yangidan jonlanadi. Asar davomida Tanaboy va Gulsarining taqdiri bir-biriga tobora yaqinlashib boradi. Chingiz Aytmatovning mahorati ham shunda nazarimda, inson va tabiat, tiriklik ruhining ayri emasligini his ettira olishidadir. Umumbashariy haqiqatlar shunchaki sujet hisobiga yoritilmaydi, xalq ma'naviyatining buyuk xazinasi bo'lmish folklor namunalari shunday qo'llaniladiki, faqatgina qahramonlar taqdiridan emas, butun boshli moziydan saboq olasiz. Asar bosh qahramoni Tanaboyning yaqin do'sti Jo'raning dafn marosimidan so'ng o'z-o'zi bilan yuzlashishi, iztiroblari, armonlari, yashaganlari qalbida tosh bosib yotgan ne bo'lsa barchasi birgina temir qo'bizning yangrayotgan ohangi bilan ko'zlaridan sizib chiqishni boshlaydi.

"Go'yo shamol alam bilan ingrayotganday, go'yo bir dam dalada yig'i aralash ashula aytib yugurayotganday, atrofdagi hamma narsalar esa nafasni ichiga yutib, sukut saqlab turganday va faqat insoniy qayg'u- hasrat nola chekayotganday edi. Go'yo u yugurar va o'zining qayg'u-alami bilan qayerga bosh urishini bilmas, bu sokin va kimsasiz yerda alamlarini aytib, ko'nglini qanday bo'shatishni bilmas, unga hech kim javob qilmasdi. U o'zi yig'lar, o'zini o'zi tinglardi. Tanaboy xotinining "Keksa ovchining qo'shig'i"ni aytayotganini angladi…". Tabiat ham Tanaboyning ichki holatini takrorlayotgandek. Uning qalbidagi alam shu qadar kuchliki, tabiat ham uning ko'ziga yig'layotgandek, ingrayotgandek ko'rinadi. Bu ingrash Tanaboyning ichki faryodiga qorishib ketadi. Shu lahzalar oralig'ida qahramon hayotini ko'z oldidan o'tkazadi, vijdoni bilan yuzlashadi. "Keksa ovchining qo'shig'i" qirg'iz xalqining qadimiy afsonasi, xalq og'zaki ijodining yorqin namunasi sanaladi. Bu shunchaki bir qo'shiq emas, unda millatning asrlar davomida boshdan kechirgan dard-u hasratlari mujassamlashgan. Rivoyatlarga ko'ra, keksa ovchi kiyik deb o'ylab o'zining jonparchasi o'g'li - Qoragulni otib qo'yadi. Otaning faryodi, pushaymoni yurakni larzaga keltiruvchi fojiasi asrlar davomida ham unutilmaydi.

Men seni o'ldirdim, o'g'lim Qoragul,
Holimga yig'lar kim, o'g'lim Qoragul,
Taqdir jazoladi, o'g'lim Qoragul,
Qismat o'ch oldi, o'g'lim Qoragul.

Bu marsiyani faqatgina farzandidan ayrilgan otaning nolasi sifatida qarash, tahlil qilish uning asl mazmunini ochish uchun kamlik qiladi. Mazkur qo'shiq ortida inson va tabiat o'rtasidagi rishtaning ahamiyati jonli, balandparvoz so'zlarsiz ko'rsatiladi. Chingiz Aytmatov biz yodimizdan chiqarayotgan bir haqiqatni, tabiatdan, uning ne'matlaridan foydalanish va uni nobut qilish orasidagi chegarani unutish qanchalik qimmatga tushishini uqtirmoqda. *"Men barchaga - g'arbliklarga ham sharqliklarga ham birday taalluqli mavzularga qo'l urishni istayman",* degan fikrni ham bejiz ta'kidlamangan adib. Bugun u yaratgan asarlar dini, millati, irqidan qat'iy nazar inson tafakkurini boyitishga xizmat qilmoqda.

"Alvido, Gulsari" har jumlaning, har bir so'zning zalvori bo'lgan asar. "Alvido, Gulsari" faqatgina ot bilan vidolashuv haqidagi emas – insonni o'zi, vijdoni bilan yuzlashtiradigan qissa. Gulsarining jon berishini bu qadar mahorat bilan tasvirlashdan maqsad, kitobxonni qayg'uga solish emas, aksincha, yoshlikning, bugunning qadriga kech bo'lmasdan yetishni anglashga turtkidir. Otning holsizlangan qadamlari go'yo inson umrining ham qadamlari vaqti kelib sekinlashishiga ishoradir. Vaqt hech kimni ayamaydi, xohlamasak ham uning qadamlari ildamlab ketaveradi, biroq xotiralar qoladi. Xotiralarning qanday bo'lishi esa bugun qilayotgan amallarimiz-u, niyatlarimizga bog'liq. Zero, vaqt o'tgandan keyin pushaymon bo'lish hech narsaga yechim bo'lolmaydi. Aslida, maqolani asar salohiyatini ko'rsatuvchi, bir kitobxonga bera oladigan hayajonini ifoda etadigan jimjimador so'zlar bilan yakunlamoqchi edim. Ammo uning o'rniga Tanaboy Bakasov tilidan keltirilgan quyidagi jumla bilan yakunlashni joiz topdim: *"Ha, bu dunyoda "hech qachon " kabi dahshatli so'zlar mavjud. Shu bilan gap tamom…"*

Dilnoza ALIMOVA,
SamDU magistranti.

Yangi kitoblar

"Fidoyilik – umr mazmuni"




O'zbekiston Jurnalistlari uyushmasi a'zosi Anora Norboyevaning shu nomli kitobi chop etildi.

Ushbu to'plamdan muallifning publisistik maqolalari, yurt ravnaqiga hissa qo'shgan olimlar, ijodkorlar va fidoyi ustozlari haqidagi xotiralari o'rin olgan. Shuningdek, kitobda muallifning kasbiy faoliyati, ustozlik maqomi haqida zamondoshlari, hamkasblari va shogirdlarining samimiy fikr-mulohazalari, maqolalari va she'rlari jamlangan.

Faxriy jurnalist Anora Norboyeva so'nggi yillarda tumanda yosh ijodkorlar uchun "Dilmunchoq" ijodiy jamoasini tashkil qildi. Bu yerda u ko'plab yosh iste'dodlarni kashf etdi. Ushbu ijodiy jamoa bugun respublika miqyosida tanilib, uning faoliyati boshqa tumanlarda ham ommalashyapti. Hozirda jamoaning 40 ga yaqin a'zosi bor. Tajribali jurnalist ularga yo'l-yo'riq va maslahatlar beradi.

"Fidoyilik – umr mazmuni" kitobini o'qir ekansiz, A.Norboyevani tarbiyalagan, ijod va hayot yo'lida maqsad sari yetaklagan ustozlarining zahmatli mehnati va bugun u yaratgan ijodiy muhit, shogirdlarining yutuqlari bor bo'y-basti bilan ko'z oldingizda namoyon bo'ladi.

"Dilmunchoq shodalari"



Qo'shrabot – iste'dodlar maskani. Bu zamindan Ergash Jumanbulbul, Ravshan Fayz, Sobir O'nar, Abduqayum Yo'ldoshev kabi ijodkorlar yetishib chiqqan. E'tiborlisi, bugun ham tuman yoshlari ularning izidan borib, adabiyot maydonida munosib o'rin topmoqda. Yaqinda poytaxtimizdagi "Ijod nashr" nashriyotida chop etilgan "Dilmunchoq shodalari" she'riy to'plami bunga yorqin misoldir.

Mazkur to'plam Qo'shrabot tumanidagi ijodkorlar hamda "Dilmunchoq" nomli yosh qalamkashlar ijodiy jamoasi a'zolarining she'rlarini jamlagan. Bayozda ijod maydoniga endigina qadam qo'yayotgan ijodkorlarning Vatan madhi, ota-onaga ehtirom, tabiat go'zalligi va yoshlikning sof tuyg'ulari madh etilgan. To'plam adabiyot maydoniga dadil kirib kelayotgan yosh iste'dodlarning ilk izlanishlari mahsulidir.

MATBUOT UYI
Zarafshon
САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 261 nusxada chop etildi. Buyurtma 342. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56
BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:
soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi:
soat 19:00

Gazetamizning ayrim materiallariga surat tanlashda sun'iy intellekt imkoniyatidan foydalaniladi

Navbatchi muharrir: G'.HASANOV.
Navbatchi: X.ERNAZAROVA.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X
9 772010 667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda